

## BEGONA O‘TLARGA QARSHI KURASHISHDA

### BASHORATLASHTIRISH

Sulliyeva Suluv Xurramovna

Termiz davlat universiteti

**Annotatsiya.** Maqolada begona o‘tlar bilan kurashishda bashoratlashtirishning ahamiyati, ularni oldindan aniqlash va zararni kamaytirish usullari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Foydali bashorat usullari va metodlar tahlil qilingan

**Kalit so‘zlar:** Begona o‘tlar, bashoratlashtirish, ekinzorlar, zarar, kurash, agrotexnika, gerbitsidlar.

**Аннотация.** В статье рассматривается важность прогнозирования в борьбе с сорняками, методы их предварительного выявления и сокращения ущерба. Проанализированы полезные методы и подходы.

**Ключевые слова:** сорняки, прогнозирование, сельхозугодья, ущерб, борьба, агротехника, гербициды.

### FORECASTING IN WEED CONTROL

Sulliyeva Suluv Xurramovna

Termiz State University, Termiz, Uzbekistan

**Annotation:** The article discusses the importance of forecasting in weed control, methods for early identification, and reducing damage. Useful forecasting methods and approaches are analyzed.

**Keywords:** weeds, forecasting, agricultural fields, damage, control, agronomy, herbicides.

Ekin maydonlarining begona o‘tlar bilan ifloslanganlik darajasini, qachon, qaysi ekin maydonlarida, qanday miqdorda bo‘lishini oldindan aniqlanishi, ya’ni, bashoratlashtirish muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, bu sohada bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari o‘tkazilib, begona o‘tlarning o‘sishi va rivojlanishini

bashoratlashtirishning begona o‘tlarga qarshi kurashishda ahamiyati juda katta ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan to‘la asoslangan.

Y.P.Manko va V.V.Isayevlar begona o‘tlarni rivojlanishini oldindan bashoratlashtirish bo‘yicha maxsus uslubiy qo‘llanma yaratib, begona o‘tlarga qarshi qo‘llaniladigan uslublarning muvaffaqiyati ularni bashoratlashtirilishi bilan bog‘liqligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslashgan. Ayniqsa, qaysi begona o‘t, qaysi ekinlar dalasida, qachon unib chiqishi, qay darajada ekinzorlarni ifloslantirishining aniq bashoratlashtirishining uslubiy asoslari begona o‘tlarga muvaffaqiyatli qarshi kurashishning poydevori hisoblanadi.

Begona o‘tlarning ekinzorlarda rivojlanishini oldindan bashoratlashtirish bilan birga unib chiqadigan begona o‘tlarning soni, hayotchanligi biologik xususiyati, unib chiqish koefitsiyenti ham aniqlansa, agrotexnologik usullar bilan birga kimyoviy usullarni qo‘llash texnologiyasi bo‘yicha gerbitsidlarning turlari, meyorlari, qo‘llanilish muddatlari hamda qaysi turdagি begona o‘tlarga qarshi qaysi gerbitsidlarni qo‘llashni oldindan rejalashtirilishi osonlashadi.

Begona o‘tlarning rivojlanishini oldindan bashoratlashtirish bo‘yicha xorij davlatlarining olimlari tomonidan ham muhim ishlar amalga oshirilgan. Avstraliyalik olimlarning begona o‘tlarni ko‘payishining potensial holatlarini oldini olishda oldindan bashoratlashtirishga bo‘lgan e’tibori juda kuchli bo‘lgan. Tuproqdagи begona o‘tlarning zahirasini nazorat qilish uchun oldindan bashoratlashtirish yuqori samara beradi. Tuproqdagи begona o‘tlar urug‘larini oldindan bashoratlashtirishdagi asosiy ko‘rsatkich begona o‘tlarning urug‘larining soni emas, balki hayotchan begona o‘tlar urug‘lari hisoblanadi. Bunday hayotchan begona o‘tlarning urug‘lari zahirasi 3-6 foizni tashkil etadi .

A.V.Fisyunov maxsus uslubiy tavsiyanoma tuzib, unda nafaqat tuproqdagи begona o‘tlar, balki ekinzorlardagi begona o‘tlarni bashoratlashtirish bo‘yicha maxsus tizimni taklif etgan.

G.A.Bereznikov tomonidan tuzilgan uslubiy ko'rsatmada dalalarning begona o'tlar bilan ifloslanganlik darajasini hisobga olish, xaritalashtirish yo'li bilan bashoratlashtirishni taklif etgan.

YE.M.Lebed, N.I.Pridvorevlar almashlab ekish ekinlarining ifloslanishini hisobga olishda maxsus kuzatuv ishlari olib borib, 1m2 maydonda 7 dona begona o't bo'lib, silos uchun yetishtirilayotgan makkajo'xori dalalarida 11,4 dona, gorox yetishtirilayotgan dalalarda 15 ta; kuzgi bug'doy dalasida esa 16,4 donadan begona o'tlar uchrashini aniqlagan.

N.F.Mixaylova, E.M.Shmat, N.V. Laninalar begona o'tlarning 83 turi bo'yicha maxsus tajriba maydoni tashkil etib, begona o'tlarni unib chiqishini o'rganganlar. Kuzatuvlari natijalari bo'yicha begona o'tlarning har yili o'rtalisa hisobda 10% unib chiqib tuproqda qolganlarining unib chiqishi uzoq yillargacha davom etishini ta'kidlashadi.

Y.P.Manko tomonidan begona o'tlarni unib chiqishi bo'yicha bashoratlashtirish uslubida begona o'tlarning unib chiqishi ekologik sharoitga bog'liq bo'lib, ularning unib chiqish darajasi mintaqaviy xususiyatga ega bo'lishi sababli har bir mintaqaning o'ziga xos va mos bo'lgan uslubiyati bo'lishi ta'kidlanadi.

V.P.Matveyev, V.I.Morozov, YE.A.Petuxov, R.E.Djalilovlar ekin maydonlarini begona o'tlar bilan ifloslanganlik darajasini xaritalashtirish yo'li bilan bashoratlashtirishni almashlab ekish tizimiga mos holda tuzilishini asoslaganlar.

Y.A.Zlobin [3.29] begona o'tlarning urug'larini bir tekisda birinchi yiliyoq unib chiqmasligi sababli ularni bartaraf etishning uzoq muddatli maxsus tizimini ishlab chiqilishini ta'kidlaydi.

A.M.Tulikov, Y.M.Korotkov, V.YE.Kapitanov, R.S.Kireyevlar tuproqning va ekinzorlarning begona o'tlar bilan ifloslanganlik darajasini aniqlab, uni bartaraf etishni maxsus reja asosida olib borilsa, samaradorligi yuqori bo'lishini yozadi.

N.X.Rivkin, L.K.Borisov, V.I.Bodnya, A.P.Kovalenko begona o'tlarga qarshi gerbitsidlar qo'llanilganda ularning soni va turiga moslashtirib gerbitsidlar va ularning meyorlari tanlanishini taklif qilishgan.

R.S.Kireyev tuproqda mavjud bo'lgan begona o'tlarning turlari bo'yicha sonini aniqlash bilan birga ekin maydonlaridagi begona o'tlarni ham turlari bo'yicha sonlarini aniqlab, tuproqda mavjud bo'lgan begona o'tlarning sonlari bilan ekinzorlar orasida mavjud bo'lgan begona o'tlar orasida korrelyativ aloqa bo'lishini aniqlagan.

V.P.Konovalov, V.G.Chaykalar begona o'tlarni har tomonlama o'rganib, begona o'tlarga qarshi kurashishning eng muhim jihatini ekish mo'ljallangan donning begona o'tlar urug'laridan tozalash darajasiga katta ahamiyat berilishini ta'kidlashadi.

Mamlakatimizda boshoqli don ekinlari orasidagi begona o'tlar va ularga qarshi kurashishning maxsus tavsiyanomasi 1996 yilda ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyanoma bo'yicha boshoqli don ekinlari orasida keng tarqalgan begona o'tlar va ularga qarshi kurashish usullari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Begona o'tlarga qarshi kurashishni bashoratlashtirishga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu sohada juda ko'p tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramasdan fikrlarning begona o'tlarga qarshi kurashish bo'yicha to'g'ri va aniq yo'nalishga qaratilishiga qaramasdan barcha masalalarning bir joyga to'planib, begona o'tlarga qarshi kurashishning kompleks usuli kuzatilmaydi. Shu sababli ham ekinzorlardagi begona o'tlarni urug'lamasdan bartaraf etish bilan birga har bir dehqonchilik mintaqasi sharoiti uchun begona o'tlarni bashoratlashtirish bilan birga ularga qarshi kurashishning bir necha 10 yillarga mo'ljallangan rejali al mashlab ekish dalalari bo'yicha alohida-alohida tuzilgan bo'lishi kerak

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Балантаева М.Р. Сорно-полевая растительность и химический метод борьбы с нею на равнинно-холмистой боргере Узбекистана. Автор.дисс.канд. с/х наук. Ташкент, 1974.-22 с.

2. Ибрагимов З.А. Борьба с сорными растениями при технологии возделивания двух урожаев зерна в год. Автор.дисс.на соис.уч.ст.канд. с/х. наук. Самарканд СамСХИ, 1999.-21 с.
3. Суллиева С. Х., Бобоева Н. Т., Зокиров К. Г. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЗЕМЛИ ВМЕСТЕ В ТЕКУЩЕМ ЛЕЧЕНИИ //Мировая наука. – 2019. – №. 6 (27). – С. 450-452.
4. Rizayev Sh. X. Tuproqqa ishlov berish chuqurligi va gerbitsid meyorlarini begona o‘tlar, kuzgi bug‘doy hosili va uning sifatiga ta’siri, q.x.f.n. ilmiy darajasiga talabgorlik dissertatsiya avtoreferati. O‘zPITI. Toshkent, 2006.-22 b.
5. Sullieva S., Zokirov K. Biology of weeds //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 2. – С. 120-124.
6. Фозилов Ш. М. Периодичность роста и формирования урожая у внутривидовых форм пшеницы //Интернаука. – 2019. – №. 45-1. – С. 18-20.
7. Суллиева С. Х., Зокиров К. Г. Вредные свойства и классификация сорняков //Экономика и социум. – 2020. – №. 9 (76). – С. 319-322.
8. Xurramovna S. S. et al. Use Atlantis Herbicide for Avena Fatua in the Middle of a Wheat Field //International Journal on Integrated Education. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 45-47.
9. Суллиева С. Х., Зокиров К. Г. Структура урожайности озимой пшеницы при применении гербицидов против сорняков //Экономика и социум. – 2020. – №. 9 (76). – С. 323-326.
10. Sullieva S. X., G'Zokirov Q. The Structure of the Yield of Winter Wheat When Using Herbicides Against Weeds //International Journal on Integrated Education. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 37-40.
11. Суллиева С. Х., Бобоева Н. Т., Зокиров К. Г. ВИДЫ И СОРТА ХРИЗАНТЕМ //Экономика и социум. – 2019. – №. 10 (65). – С. 315-317.